

**“PRETSEDENT” TUSHUNCHASINING ILMIY TASNIFI VA UNING TURLARI
TADQIQI**

Soatova Mohinur Majid qizi

Toshkent davlat to'qimachilik
va yengil sanoat instituti (PhD)

doktoranti

Ma'lumki, dunyo tillari lug'at tarkibi ichki va tashqi manbalar tufayli boyib, kengayib boradi. Ichki manba sifatida shevalardan so'z olish va ma'lum bir yasovchi qo'shimchalar orqali yangi so'zni hosil qilish qayd etilsa, tashqi manbaning asosi o'zlashma so'zlardir. O'zbek tiliga kirib kelgan shunday o'zlashma so'zlardan biri “pretsedent” so'zidir. 1984-yilda nashr qilingan ikki tomli Ruscha-o'zbekcha lug'atning ikkinchi tomida “pretsedent” terminiga quyidagicha ta'rif berilgan:

“PRETSEDENT”- o'zidan keyin sodir bo'ladigan xuddi shu turdagi voqelarga namuna, o'rnak bo'la oladigan voqea, hodisa.

O'zbek tiliga ilmiy termin sifatida kirib kelgan “pretsedent” so'zining dastlabki izohi berilgan lug'at sifatida aynan shu “Ruscha-o'zbekcha lug'at”ni aytish mumkin. Shundan so'ng bir necha lug'atlarda ushbu so'z kiritila boshlandi. Xususan, Madvaliev hammuallifligida 2013-yilda kril va lotin alifbolarida nashr qilingan “O'zbek tilining imlo lug'ati” da ham “pretsedent” so'zi kiritilgan.

Olib borilgan tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, “Pretsedent” so'zi o'zbek tiliga ilmiy termin sifatida kirib kelar ekan, asosan, tarjima lug'atlarida ushbu so'zga ta'riflarni uchratishimiz mumkin. Ammo o'zbek tilining hozirga qadar nashr qilingan etimologik lug'atlarida hamda E.M. Ma'rufov tahriri ostida 1981-yilda nashr qilingan “O'zbek tilining izohi lug'ati”, E.Begmatov va boshqalar hammuallifligida 2007-yilda nashr qilingan “O'zbek tilining izohli lug'ati” nomli lug'atlarda, shuningdek T.Umarov masul muharrirligida 1990-yilda nashr qilingan “Ensiklopedik lug'at”da “pretsedent” so'zining kiritilmagani va izoh keltirilmaganini ta'kidlash mumkin. Buning sababi esa “pretsedent” termini o'zbek tiliga rus tili orqali yurisprudentsiya termini sifatida kirib kelganini aytishimiz mumkin. Ya'ni faqatgina muayyan doiradagi shaxslar tomonidan ishlatiladigan ilmiy termin sifatida qayd etilgan. Shunday sohalarining biri sifatida esa tilshunoslik sohalaridan biri lingvokulturologiyani qayd etish lozim.

“Pretsedent” termini o'tgan asrning ikkinchi yarmida rus tilshunosi Y.N. Karaulov tomonidan tilshunoslikka kiritilgan. Uning 1986-yil rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining VI Xalqaro kongresida qilgan “Рол прецедентных текстов в структуре функционирования в языковой личности” nomli ma'ruzasida ushbu termin ilk bor tilshunoslik nuqtai nazaridan qo'llanildi. Keyinchlik Y.N. Karaulov o'zining “Русский язык и языковая личность” nomli asarida “pretsedent” terminining nazariy tomonlarini kengaytirib ifoda etdi. Shundan so'ng pretsedent terminining atributlarini o'zida namoyon qilgan boshqa turlari: pretsedent nom, pretsedent aytim, pretsedent birlik, pretsedent vaziyat, pretsedent fenomen, pretsedent konsept va boshqa turlari tilshunoslikning turli sohalarida o'z ifodasini topdi.

D.B. Gudkovning fikriga ko'ra o'xshash faktlarni huddi o'ziday qilib qaytarish uchun qolip (model) bo'lib hizmat qiladigan, nutqda muayyan verbal signallar bilan ifodalangan,

qaytadan yaratilmaydigan, ammo takroran ishlab chiqiladigan standart mazmunni faollashtiruvchi namunaviy faktlar” kiradi.

Yuqorida takidlaganimizdek, Y. N. Karaulov taklif qilgan “pretsedent matn” doirasida V.V. Krasnix, D.B. Gudkov va boshqalar tomonidan “Pretsedent fenomen” termini jamlanmasi taklif etildi.

“Fenomen” – [yun. Phainomena – tuyuladigan, ko`rinadigan narsa] 1. His-tuyg`u tajribasi bilan bilinadigan hodisani anglatuvchi tushuncha. 2. G`ayrioddiy, kamdan-kam uchraydigan hodisa, fakt, shaxs. “Pretsedent fenomen” – barcha uchun yaxshi tanish bo`lgan, uning mavjudligi haqida ma`lum bir tushunchaga ega bo`lgan hodisa jamlanmasi.

Pretsedent fenomenlarning asosiy belgilari : milliy-lingvomadaniy jamiyatning barcha vakillariga tanish; kognitiv (bilish va his qilish) planida dolzarb (pretsedent fenomenlar ortida har doim u yoki bu milliy-madaniy mentalitet vakillari uchun majburiy va umumiy tasavvur turadi); u yoki bu milliy-lingvomadaniy jamiyat vakillari nutqida pretsedent fenomenlarga apellyatsiya takrorlanib, qaytalanib turadi; retsedent fenomenlar har doim nutqiy ifoda shaklida bo`lishi shart emas.

Olib borilgan turli ilmiy tadqiqot natijasida olimlar pretsedent fenomenlarning quyidagi asosiy to`rt turini tadqiqot markaziga qo`ymoqdalar:

1. Pretsedent matn
2. Pretsedent aytim
3. Pretsedent nom
4. Pretsedent vaziyat

Matnlarga nisbatan pretsedent termini birinchi bo`lib, Y.N. Karaulov tomonidan ishlatilgan unga ko`ra, pretsedent matnlar “xrestomatik” bo`ladi, ushbu tilda gapiruvchi har bir shaxs, uni ko`rib chiqib yoki birovlardan eshitib uning mazmunini tushunib yetadi. Shu bilan birga, pretsedent matnlarni bilish shaxsni zamonaviy madaniyatning harakat doirasiga kirganlikni anglatadi. E.A. Zemskayaning fikriga ko`ra, matnlar pretsedent maqomini olishi uchun diskursga hech qanday o`zgarish kiritilmagan holda “sitata” ko`rinishida yoki transformatsion “kvazititatsiya” ko`rinishida kiritilishi kerak. Ular lingvokulturologik jamiyat azolariga tanish va ularga muntazam ravishda murojaat qilinadi.

Pretsedent matn tushunchasi ortidan odatiy tarzda *pretsedent aytim* tushunchasi paydo bo`ldi. Pretsedent aytim nutqiy tafakkur faoliyatining qayta murojaat qilinadigan mahsuloti; predikativ bo`lishi yoki bo`lmasligi mumkin bo`lgan, tugallangan mustaqil birlik; komponentlari mazmunlarining miqdori ma`nosiga mos kelmaydigan murakkab belgi; ma`nosi har doim mazmun miqdoridan ko`ra kengroq, unig kognitiv bazasiga pretsedent aytim fikr, muohaza sifatida o`zi kiradi. Pretsedent aytimlar tarkibiga turli xarakterdagi tekstlardagi sitata (iqtibos)lar, afarizmlar, maqollar va matallar kiradi.

Pretsedent nom – keng jamoatchilik uchun yaxshi tanish bo`lgan atoli otlar bo`lib, ular matnda konkret bir shaxsni ifodalash uchun emas, balki o`ziga xos bir madaniy belgi, timsol, muayyan sifat, voqealar, taqdirlar sifatida qo`llaniladi. Bunday ismlarga atoqli otlar – shaxslarning ismlari (ingliz tilida - Arthur, Victoria, George Bush, o`zbek tilida – Muhammad allayhissalom, Amir Temur, Islom Karimov, Navoiy...), shahar nomlari (o`zbek tilida – Samarqand, Buxoro, Xiva..., ingliz tilida – London, Manchester, New York...), geografik nomlar (o`zbek tilida – Pomir, Sirdaryo, Amudaryo, ingliz tilida – The Alps, The Pacific Ocean, The North Pole...).

Pretsedent vaziyat – muayyan konnotatsiyalar bilan bogʻliq, differensial belgilari kognitiv bazaga kiradigan qandaydir bir “etalon”, “mukammal” vaziyat.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, barcha pretsedent fenomenlar tez-tez til shaxsiyati diskursida foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, pretsedent nom va pretsedent aytimlar verbal fenomenlar sirasiga, pretsedent matn va pretsedent vaziyat esa, verballashtiruvchi fenomenlar sirasiga kirib, murojaat mos keluvchi, belgilari boʻlib xizmat qiluvchi, pretsedent nom va pretsedent fikr, mulohaza, ifodalar orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Gudkov D.B., *Pretsedentnoe imya i problemy pretsedentnosti* (Case Name and Case Problems), Moscow: Moscow State University, 1999, 152 p. <https://urss.ru/cgi-bin/db.pl?lang=Ru&blang=ru&page=Book&id=258079>
2. Gudkov D.B., *Teoriya i praktika mezhkulturnoi kommunikatsii* (Theory and Practice of Intercultural Communication), Moscow: Gnozis, 2003, 288 p. Available at: <https://www.twirpx.com/file/563811/>
3. Karaulov Yu.N., *Russkii yazyk i yazykovaya lichnost'* (Russian Language and Language Personality), Moscow, 1987, 216 p.
4. Krasnykh V.V., *Etnopsikholingvistika I lingvokul'turologiya* (Ethnopsycholinguistics and Cultural Linguistics), Moscow: Moscow State University, 2002. Available at: <https://www.twirpx.com/file/213813/>
5. *Ruscha-uzbekcha lugat II tom* (Russian-Uzbek Dictionary, Vol. II), Tashkent, 1984, 195 p.
6. Satimov G., *English-Russian-Uzbek Dictionary of Juridical Terms*, Tashkent, 1999, 208 p.